

**Respublika bolalar kutubxonasi**

**Axborot-resurs markazlariga  
uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi**

**“MANGULIKKA MUHRLANGAN MUTAFAKKIR”**

**Buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiy tavalludining 576  
yilligiga bag'ishlangan uslubiy tavsiyanoma**

**Toshkent – 2017**

**Ushbu uslubiy tavsiyanoma axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘limi tomonidan tayyorlandi.**

**Respublika bolalar kutubxonasi ilmiy-uslubiyot kengashining yig‘ilishida 2017 yil \_\_\_ fevral kuni \_\_\_\_\_-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.**

**Tuzuvchi:**

**N.Abdusamatova** – Axborot-resurs markazlariga uslubiy yordam ko‘rsatish bo‘limi sho‘ba mudiri.

Ushbu tavsiyanoma g‘azal mulking sultoni, buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy tavalludining 576 yilligiga bag‘ishlab tuzildi. Tavsiyanomada Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, yozgan asarlari xaqida ma’lumotlar hamda maktab sahnasida o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan 5-7 sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan tadbir ssenariysi berilgan.

Mazkur tavsiyanomadan ARM xodimlari, maktab o‘qituvchilari hamda Alisher Navoiy ijodiga qiziqqan barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.

## ULUG‘ MUTAFAKKIR VA BUYUK SHOIR

Bu yil jahon madaniyatiga qimmatbaho durdonalar qo‘shgan buyuk siymolar orasida o‘zbek xalqining sharafshonini, milliy iftixori bo‘lgan Alisher Navoiy tavalludiga 576 yil to‘ladi. Uning olqishlariga sazovor bo‘lgan iste’dodi o‘zbek adabiyotini g‘oyaviy va badiiy jihatdan yuksak darajaga ko‘tarib, chuqur insoniy ehtiroslar bilan boyitdi. U o‘z xalqining dunyoqarashi, falsafiy, ahloqiy tushunchasi, zavqshavq, tasavvur, orzu-umidlarini keng va yuksak badiiy ifodalarda buyuk mutafakkir sifatida tasvirladi va yangi badiiy ijodning qudratli namunasini namoyish etdi.

Alisher Navoiy o‘zbek tilining benihoya boyligini, turli fikr mushohadalarini ifoda etishda qudratli kuchga va imkoniyatga molik ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi. O‘zbek tilini o‘z zamoniga qadar misli ko‘rinmagan darajaga ko‘tardi, o‘zbek tilida xilma-xil chuqur ma’nolarini rango-rang badiiy tasvirlarda san’atkorona ifoda qilib, o‘zbek tilining go‘zalligini, jo‘shqinligini, qudratini, jozibasini, inson aqlini yuksaltiruvchi keng fazolarga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Navoiy dahosi, aqlu idroki

She’riyat dunyosin qadrin ulg‘aytmish.

Har doston, har g‘azal, har bitta satri

Har dilda insonga ixlos uyg‘otmish.

Shu ulug‘ daho, fikru farosat

Kashf etgan besh buyuk, bebaho haykal,

Muhabbat, sadoqat, haqu adolat,

Do‘stlik chehrasiga abadiy sayqal.

## ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI

O‘zbek xalqining ulug‘ ma’rifatparvari, mutafakkiri va buyuk shoiri Alisher Navoiy 1441 yil, 9 fevralda Hirot shahrida dunyoga keldi. Bo‘lajak shoir bolalik davrlaridanoq Temuriy shahzodalar bilan tarbiyalana boshlaydi. Chunki uning otasi G‘iyosiddin Kichkina temuriylar avlodidan edi. Alisher o‘zining o‘qishi, odobi bilan boshqalardan ajralib turar edi. Alisher Hirotida va Mashhadda o‘qigan, mantiq, falsafa, musiqa, husniyat va boshqa fanlarni, arab va fors tillarini o‘rgangan. Navoiy o‘n besh yoshidanoq iste’dodli shoir sifatida xalq ommasiga tanilgan. O‘zbek tilidagi she‘rlariga “Foniy” tahalluslarini qo‘ygan. Uning o‘zbek tilidagi hamma she‘rlari “Bolalik ajoyibotlari”, “Yoshlik nodirliklari”, “O‘rta yosh go‘zalliklari”, “Qarilikning foydalari”, to‘rt qismdan iborat “Xazoyin ul-maoniy” to‘plamiga, fors tilidagi she‘rlari esa “Devoni foniy” to‘plamiga jamlangan.

Shoir maktabdor yoki mudarris bo‘lib dars bergan bo‘lmasa ham, ta’lim-tarbiya ishida juda katta xizmatlar qildi. Ilm-ma’rifat homiysi bo‘lgan Navoiy maktab va maorif ishlariga har doim katta e’tibor berdi. Mehnatkash xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktab va madrasalar tashkil etishni davlat oldida turgan bosh masalalardan biri deb qaradi, ilm ahllariga, muallimlarga muhabbat bilan munosabatda bo‘ldi.

Alisher Navoiy yosh avlodlarning ilm hunarni va yaxshi insoniy fazilatlarni egallagan bo‘lishini orzu qildi. Bu haqda shoir o‘zining “Mahbub ul-qulub” dostonida, har qanday holatda ham, agar u podsho bo‘lib ketsa ham ustoz-o‘qituvchi oldida qarzdor ekanligini ta’kidlash bilan muallimlik kasbini ulug‘laydi.

**Haq yo'lida kimki senga bir harf o'qitgan bo'lsa,  
Uning haqqini yuzta xazina bilan ham ado qilib bo'lmaydi.**

Navoiy o'zining ko'p asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarni ilgari surdi. Ayniqsa, "Xamsa"ga kirgan "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlarining ba'zi boblarini bola tarbiyasi egallaganini ko'ramiz. Bular orasida "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi") falsafiyligi, ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy-ta'limiy masalalarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Shoir bolalarni o'qimishli, odobli, halol, pok, sahiy bo'lishga, ota-onani, o'zidan kattalarni hurmat qilishga, insofli va adolatli kishilar bo'lib kamol topishga undaydi.

"Hayrat ul-abror" dostonining oltinchi bobida shoir odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli fikr mulohazalarni bayon etadi.

Dostonning o'ninchi bobida to'g'rilik, rostgo'ylik g'oyasi ilgari suriladi. Jumladan, "Sher va Durroj" masalida yolg'onchilik va egrilikning yomon oqibatlari ochib beriladi.

Shoirning o'n birinchi hikoyati ham diqqatga sazovordir. SHoir unda ilm-fanga, ilm ahliga yuksak baho beradi, kishilarni ilm olishga, olimlarni izzat-hurmat qilishga chaqiradi. Odamni voyaga etkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi. Navoiyning ta'biricha, tarbiyaning maqsadi – yosh avlodni xalqparvar, bilimli, eng yaxshi fazilatlarga ega kishi qilib voyaga etkazishdir.

Navoiyning favqulodda iste'dodi uch-to'rt yoshlarida namayon bo'lgan. O'shanda u birinchi marta she'r yod olgan, hurmatli kishilar davrasida she'r o'qib, ularning hayratiga sazovor bo'lgan. Bu Alisherning bolalik chog'idagi Hirotda eng

mashhur shoir Amir Qosim Anvarning bir gʻazali edi. Uch-toʻrt yashar Alisherning bitta gʻazalni yod olishi, adabiyotshunos olim Izzat Sultonning taʼkidlashicha, bu erda bolaning qobiliyatidan tashqari yana bir odatning taʼsiri bor: oʻrta asrlarda Osiyoda, SHarqda kichiklikdan butun-butun sheʼlarnigina emas, hatto katta kitoblarni ham bolaga yod oldirishga toʻgʻri kelar, bolaning yod olish qobiliyatini tarbiyalash pedagogikaning eng muhim vazifalaridan edi.

Alisher bir kuni ustozi Mavlono Lutfiyga:

**Orazin yopqoch, koʻzimdin sochilur har lahza yosh,  
Boʻylakim, paydo boʻlur yulduz, nihon boʻlgʻoch quyosh.**

deb boshlangan gʻazalini oʻqib berganida, Lutfiy, agar iloji boʻlganda barcha sheʼrlarimni shu ikki misraga almashgan boʻlardim, deydi. Bu maqtov yigirma yoshli shoir uchun katta mukofot edi.

Navoiy hunar ahlini ulugʻlaydi, barcha sof vijdonli odamlarning manfaatlarini himoya qilib, ilgʻor ahloqiy qoidalarni tashviq etadi. U oʻz ijodiy faoliyatida ahloq, odob masalalariga alohida eʼtibor beradi. Shoirning fikricha, odob odamning olijanob fazilatlaridan biridir. Odobli kishi ochiq yuzli, xushmuomala, yoqimli boʻladi. Odobli odam doimo hurmat va izzatda boʻladi. Ota-ona, aka-uka, opa-singilni, doʻstlarni hurmat, izzat qilmoq har bir odobli kishining burchidir. Shirin soʻz har kishi uchun eng yaxshi fazilatdir.

Navoiy ota-onalarni oʻz bolalarini, yosh avlodni chin insonga xos boʻlgan eng yaxshi fazilatlar egasi qilib tarbiyalashga daʼvat etadi:

**Topding chu yaxshilik topshurgul,  
O‘rgat adabu yaxshi qiliq etkurgil.  
Har necha adab bo‘lsa, qattiq etkurgil,  
Haylig‘a adab qilib, saboq etkurgil.**

Alisher Navoiy o‘z ijodida odamlarni karamli, sahovatli va himmatli bo‘lishga undaydi va yoshlarni ham shunday fazilatli qilib tarbiyalashga chaqiradi. Ayniqsa “Farhod va Shirin” dostonida ilgari surilgan yuksak insoniy hislatlar, insonparvarlik g‘oyalari yosh kitobxonlar ma’naviyatiga ham chuqur ta’sir etadi, ularni xalq, vatan uchun munosib inson bo‘lib etishishlariga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy hayoti davomida inson manfaati uchun kurashdi. Insonlarga yaxshilik qilishda barchaga o‘rnak bo‘la oldi.

Alisher Navoiy ariq va kanallar qazish, yo‘l va karvonsaroylar qurish, yo‘llarda yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlash, o‘quv muassasalarini tashkil etish, yoshlarning ta’lim olishini uyushtirish, ular uchun yotoqxonalar qurish, mudarrislarni to‘plash, o‘quv ishlarini tashkil etish, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib borish, kasalxonalar, shifoxonalar qurish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. U marhumlar ruhini yod etishdek ezgu va savob ishlarga bosh bo‘ldi. Qabristonlar va chekka joylar obodonligi uchun ham qayg‘uradi. Har bir asarida insonni kuyladi, faqat yaxshilik, savob ish qilishga, ezgulikka chaqirdi. Sabr qanoatli bo‘lishga, kamtar, sahiy va olijanob bo‘lishga undadi.

**Davrondan ne kelsa, aylama isyon,  
Taqdiring ne bersa, sabr ayla, inson.**

**Bo‘lmag‘ur gaplardan qulog‘ing tiy,  
Noma‘qul so‘zlashdan tiyilsin zabon.**

Alisher Navoiy o‘z asarlarida halq og‘zaki ijodidan, ayniqsa, maqollardan samarali foydalanish bilan birga, o‘zi ham ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qancha hikmatlar yaratdi. Masalan,

**Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q.**

\*\*\*

**Tilga e‘tiborsiz – elga e‘tiborsiz.**

\*\*\*

**Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,  
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.**

\*\*\*

**Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,  
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.**

## **ULUG‘ ALLOMALAR ALISHER NAVOIY HAQIDA**

Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

*(Islom Karimov)*

Turkiy tilda qalam tebratib balog‘at va fasoxat maydonida ot surgan Navoiy, agar bu asarlarni fors tilida yaratganlarida, forsiygo‘ylarga so‘z qolmasdi.



*(Abdurahmon Jomiy)*

Nazm tariqining barcha nav'ida sohibqironlik maqomini egallabdur.

*(Husain Bayqaro)*

Turkiyda hech kim oningcha ko'p va xo'p she'r yozmabdur.

*(Bobur Mirzo)*

Dunyoing qaysi mamlakatida yashayotganidan qat'i nazar, o'zbekman degan inson o'zini Navoiy qavmiga mansub ko'radi, bu bilan faxrlanadi va bu unga o'ziga xos milliy mas'uliyat yuklaydi.

*(Adabiyotshunos Najmiddin Komilov)*

Navoiy she'riyati sehrining qudrati shu qadarki, gohida bunday satrlarni bitish inson qo'lidan kelmaydigan ishga o'xshaydi. Menga Navoiy so'zi g'oyibdan kelgan sehrlil nidek inson zoti uchun g'ayrimumkin bo'lgan sohirlikdek tuyuladi.

*(Shoir Erkin Vohidov)*

Navoiy ijodi bir kalit. Bu kalitni qo'lga kiritgan odam ham mumtoz adabiyot sirlarini egallaydi, ham Sharq ma'naviyati xazinasiga eshik ochadi.

*(Adabiyotshunos Ibrohim Xaqqul)*

Navoiy millat dardi bilan og‘rib o‘tgan shoir, agar millat shoir yaratgan badiiy mo‘jizalardan hayratlanmay qo‘ysa, Navoiy ruhi bizdan aslo rozi bo‘lmaydi.

*(Shoira Tursunoy Sodiqova)*

Alisher Navoiydek shoirni in‘om etgan o‘zbek xalqiga beqiyos rahmatlar bo‘lsin.

*(N.I.Konrad)*

**Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan  
kitob ko‘rgazmasini tashkil qilishda  
foydalanish mumkin bo‘lgan taxminiy mavzular**

1. “G‘azal mulkining sulтони”.
2. “Navoiy – o‘zbek millatining g‘ururi”.
3. “Ulug‘ mutafakkir va buyuk shoir”.
4. “Buyuklikka tenglashgan bobomiz”.

**Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlab  
kitob ko‘rgazmasini tashkil etish uchun  
adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.S.Matkarimova Ham ehsonli oroyish, axloqidan osoyish. // Xalq so‘zi, 2017 yil 1 fevral, b-4.
- 2.B.To‘xliiev Ma’naviyatimizning hayotbaxsh sarchashmasi // Ma’rifat, 2017 yil 7 yanvar, b-11.
- 3.D.YUsupova Tili poku so‘zi poku o‘zi pok...// O‘zbekiston adabiyoti va sa’ati, 2016 yil 8 dekabr, b.4.
- 4.Alisher Navoiy. Xamsa (qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov; mas’ul muharrir V.Rahmonov... -T.: YAngi asr avlodi, 2014 yil, b.416.
- 5.Alisher Navoiy. Hikmatlar // Nashrga tayyorlovchilar: S.Mutallibov, E.Ochilov//. -T.: SHarq, 2014 yil. b-224.
- 6.Alisher Navoiy. Hikmatlar //to‘plovchi, so‘z boshi va izohlar muallifi E.Ochilov //.-T.: O‘zbekiston. 2011 yil. 408-b.
- 7.Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy -T.: TAMADDUN , 2011 yil. J.1-4: Favoyid ul – kibar.
- 8.Alisher Navoiy Sabbai Sayyor // Nasriy bayoni bilan. -T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006 yil.- b.440.

**“NAVOIYDEK BOBOM BOR,  
KO‘KSIM OSMON, O‘ZBEGIM!”  
deb nomlangan 4-sinf o‘quvchilariga  
mo‘ljallangan tadbir ssenariysi**

O‘zbek xalqining buyuk farzandi, she’riyat mulkining sultoni – Alisher Navoiyga bag‘ishlangan adabiy kecha o‘tkazish uchun sahna did bilan bayramona bezatilgan. Sahnadan Navoiy portreti, kitoblari, referatlar, bukletlar o‘rin olgan. Hikmatli so‘zlar mehmonlar o‘qiy oladigan kattalikda

yozib ilib chiqilgan. Musiqa sadolari ostida sahnaga boshlovchilar va tadbir ishtirokchilari chiqadilar.

**1-boshlovchi:** Assalomu alaykum aziz va mehriy ustozlar, qadrli o'quvchilar, kechamiz mehmonlari! Navoiy bobomiz tavalludining 576 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan kechamizga xush kelibsiz.

**2-boshlovchi:** Millatimizning faxri va g'ururi bo'lmish mutafakkir bobomizni yod etish, uning asarlaridan ta'lim-u tarbiya olish va albatta ularni kelajak avlodlarga ham etkazish siz-u bizning zimmamizdadir.

**1-boshlovchi:** Bilman, qanday ayol bo'lgan  
Alisherning onasi.  
Balki uning aqliga ham  
Lol qolgan zamonasi.  
Balki uning ko'zlarida  
Bo'lgan og'ir bir hayol.  
Balki g'amgin bir zotdir u  
Balki sho'xchan bir ayol.  
Balki buyuk farzandiga  
Terib kelgan chechaklar.  
Balki tunlar unga bedor  
Aytib bergan ertaklar.  
Mayliga, u kim bo'lmasin,  
Yolg'iz bir zot ma'nosi:  
Alisherning onasi,  
Navoiyning onasi.

*(Sahnaga o'quvchilar chiqib, Alisher Navoiyning oilaviy muhiti, bolalik, o'smirlik yillari haqida ma'lumot beradilar.)*

**1-o‘quvchi:** Alisher Navoiy 1441 yilning 9 fevralida Hirot shahrida saroy amaldorlaridan bo‘lmish G‘iyosiddin Kichkina oilasida dunyoga kelgan. Uning onasi saroy enagalaridan edi. Alisherning ota-onasi ilm-ma‘rifatli, san‘at va adabiyotni sevib qadrlaydigan kishilar bo‘lgan.

**2-o‘quvchi:** Navoiyning tog‘alari ham she‘riyatga shaydo insonlardan bo‘lib, Kobuliy va G‘aribiy tahalluslarida g‘azallar yozgan. Alisherning xonadonida tez-tez mushoiralar o‘tkazilardi, bunday g‘azalxonliklar esa jajji Alisherning qalbida san‘atga mehr va havas uyg‘ota bordi.

**3-o‘quvchi:** 5-6 yoshli Alisher o‘zining zehni o‘tkirligi bilan ham ko‘pchilikni hayratga solgan. U bolaligidanoq Farididdin Attorning “Mantiq-ut tayr” asarini butunlay yod olgan.

**4-o‘quvchi:** Alisher Navoiy 9-10 yoshdan boshlab o‘zi ham g‘azallar, ruboiylar yozishni mashq qila boshlagan. Ustozi bo‘lmish hazrat Lutfiy uning “Orazin yopqoch ko‘zindin sochilur har lahza yosh” deb boshlanuvchi g‘azalini o‘qib: “Qani iloj bo‘lganda edi, men o‘zimning forsiy va turkiyda yozgan 10-12 ming misra she‘rimni shu bir g‘azalga almashgan bo‘lar edim deya lutf qilgan.

**5-o‘quvchi:** Alisher Navoiy bobomiz zullisonayn, ya‘ni ikki tilda ijod qilgan shoir hisoblanadi. U turkiy tilda yozgan asarlariga Navoiy, forsiydagilarga esa “Foniy” deya tahallus qo‘ygan.

**6-o‘quvchi:** Alisher Navoiy nafaqat shoir balki, yirik davlat arbobi ham edi. Bolalikdagi do‘sti shoh Husayn Boyqaroning o‘ng qo‘l vaziri, davlat ishlarida maslahatgo‘yi bo‘lgan. Navoiy bobomizning vazirlik davrida yurtda ko‘p obodonchiliklar

qilingan, ariqlar qazilgan, masjidlar-u madrasalar qurilgan, oddiy xalq uchun ko‘plab qulayliklar yaratilgan.

**7-o‘quvchi:** Navoiy bobomizdan bizga bitmas, tunganmas xazina qoldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. U kishi ishq va muhabbat, vafo va sadoqat, yaxshilik va ezgulik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik g‘oyalarini kuylab o‘tdilar. Insoniyat borki, bu g‘oyalar albatta, yashaydi. Demak, Navoiy bobomiz ham doim biz bilan birga oramizda.

**1-boshlovchi:**

Mir Alisher na’rasiga aks sado berdi jahon,  
SHe’riyat mulkida bo‘ldi shoh-sulton o‘zbeqim.

**2-boshlovchi:**

Menga Pushkin bir jahon-u, menga Bayron bir jahon.  
Lek Navoiydek bobom bor, ko‘ksim osmon o‘zbeqim!

**1-boshlovchi:** Navbatni sahna ko‘rinishiga beramiz.

*(«Munojot» kuyi balandlaydi, biroz fursat o‘tgach, pastlab, bir o‘quvchi muallif sifatida o‘qiydi, qolgan o‘quvchilar esa rollar ijro etadilar.)*

**Muallif:** Bu voqea 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida G‘iyosiddin Kichkina oilasida sodir bo‘ldi.

*Ali (Alisherning tog‘asi) pochchasi G‘iyosiddin huzuriga yugurib kirib keladi.*

**Ali (1-o‘quvchi):** Assalomu alaykum, G‘iyosiddin pochcha! Sizga xushxabar olib keldim! Suyunchi beringiz! Sizga xudoyim farzand ato qildi, o‘g‘il muborak!

**G‘iyosiddin (2-o‘quvchi) (hayolida qulog‘iga chaqaloq «ingasi» eshitilgandek bo‘ladi):** Rahmat! Bag‘oyat shodmen! Bag‘oyat minnatdormen, inim! Yaxshi soatda xushxabar keltirdingiz! Jiyaningizni shu bois sizning nomingiz bilan

ataymiz. Sizdek shoir, fozil odam bo‘lsin. Yana «she’r» so‘zini ham qo‘shamiz. Sherdek jasur, qudratli bo‘lib o‘ssin. Farzandimizning nomi Alisher bo‘ladi!

**Ali:** Minnatdormen, mening ko‘nglimni kutilmagan shodlik bilan to‘ldirdingiz. Bu men uchun eng ulug‘ suyunchidir.

**G‘iyosiddin:** Qani, marhabo, koshonamizga boraylik.

**Muallif:** Ular yo‘lda davom etishayapti. Bu xonadonda esa Alisherning onasi alla aytayapti.

*(Beshik tebratib alla aytayotgan Alisherning onasi sahnasi. «Alla» xonishi eshitiladi).*

**Muallif (alla ohangi ostida):**

Bilmam, qanday ayol bo‘lgan,

Alisherning onasi.

Balki uning aqliga ham,

Lol qolgan zamonasi.

Balki uning ko‘zlarida,

Bo‘lgan og‘ir bir hayol.

Balki g‘amgin bir zotdir u,

Balki sho‘xchan bir ayol.

Balki buyuk farzandiga,

Terib kelgan chechaklar.

Balki tunlar unga bedor,

Aytib bergan ertaklar.

Mayliga, u kim bo‘lmasin,

Yolg‘iz bir so‘z ma’nosi:

Alisherning onasi u

Navoiyning onasi!

*(“Tanovar” raqsi qizlar tomonidan ijro etiladi).*

**Muallif:** Bo'lajak shoirning otasi temuriylar avlodidan edi. Shuning uchun Alisher temuriy shahzodalar bilan tarbiyalanadi. Yosh Alisher to'rt yoshga etganida maktabga bordi. U o'zining o'qishi, odobi bilan boshqalardan ajralib turar edi.

G'iyosiddin Kichkina ham o'z farzandini yaxshi o'qitish, savodxon qilish uchun bir otadan neki lozim bo'lsa, barini astoydil ado etdi.

Ularning uyiga ko'pincha qalam ahillari to'planishib, she'rlar o'qishar, adabiyot, san'at haqida bahs-munozaralar o'tkazishar edi.

Alisher uchun buyuk ma'naviyat sohiblari – Mavlono Lutfiy, Xorazmiy, Abulqosim Firdavsiy, Xisrav Dehlaviy, Umar Hayyom, Abdurahmon Jomiy va yana bir necha buyuk adiblar namuna hamda ibrat maktabiga aylanganlar.

Ha, darvoqe, tadbirimiz avvalida yosh Alisher atrofida talay adiblar o'z so'zlarini bildirmoqqa shay bo'lib turishgan edi. Marhamat, tinglang, ular Navoiy hazratlari yaratgan ulkan merosga o'z tashbeh va fikrlarini bildiradilar.

*(Endi sahnada yosh Alisher emas, Navoiy siymosidagi o'quvchi atrofdagilarga qo'li ko'ksida hurmat keltirib turibdi.*

*Buyuk siymolarning Navoiy haqidagi fikrlari tinglanadi. Yosh Alisherning iste'dodiga yuksak baho bergan Mavlono Lutfiy (1-o'quvchi) shunday deydilar).*

**Mavlono Lutfiy (1-o'quvchi):** Alisherning «Orazin...» deb boshlanuvchi baytini tingladim. Agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'nlab ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashar edim.

*(Shundan so'ng sahnaga bir qator mutafakkirlar obrazidagi o'quvchilar sahnaga birma-bir chiqib keladilar).*



**Xondamir (3-o‘quvchi):** Men Navoiy zamondoshi Xondamir bo‘laman. «Bir soatlik adolat oltmish yillik ibodatdan afzal» degan so‘zlarga amal qilib, Alisher amirliklar taxtini o‘zining muborak qalami bilan ziynatladi. Adolat va insof eshiklarini insoniyatga ochib qo‘ydi.

**Abdurahmon Jomiy (4-o‘quvchi):** Men Abdurahmon Jomiydurmen. Bu qalamkashga falakdan ofarinlar yog‘ilsin! Chunki bu yoqimli baytlarni o‘sha qalamkash yaratdi.

**Husayn Boyqaro (5-o‘quvchi):** Men esa Navoiy zamondoshi Husayn Boyqaro bo‘laman. Alisherning nazmi oldida til lol va bayon ojiz turur.

**Fuzuliy (6-o‘quvchi) fikrlaydilar:**

Turkiy Ajamu Arabda ayyom,

Har shoira bermishdi bir kom.

Olmishdi Navoiy suxandon,

Manzuri Shahanshoi – Xuroson.

**Zahiriddin Muhammad Bobur (7-o‘quvchi):** Alisherbek bahosi yo‘q kishi erdi. Turkiy tilda she’rlar aytibdurlarki, hech kim bunchalik ko‘p va xo‘b aytg‘on emas, degan edilar.

**Zamondoshimiz Erkin Vohidov (8-o‘quvchi) shunday yozadilar:**

- Menga Pushkin bir jahonu

Menga Bayron bir jahon.

Lek Navoiydek bobom bor,

Ko‘ksi osmon, O‘zbekim!

*(Qarsaklar ostida sahna ko‘rinishi yakuniga etadi. So‘ng Navoiy g‘azali bilan aytiladigan qo‘shiq tinglanadi.)*

*O‘quvchilar Navoiyning “Hayrat ul-abror” asaridan parchalar o‘qib, sharhini aytadilar.)*

**1-o‘quvchi:** Boshni fido ayla ato qoshiga,  
Jismni qil sadqa ano boshiga.  
Tun-kunungga aylagali nurposh,  
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

**2-o‘quvchi:** Ota-onaning xizmatini bajarish, ularni hurmat qilish, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lish kerak. Ota-ona misoli oy va quyoshga o‘xshaydi.

**3-o‘quvchi:** ... Yo‘q hunari yolg‘uz esa, o‘z kishi,  
Qayda kishi sonida yolg‘uz kishi?!  
Fard kishi davrda topmas navo,  
Yolg‘uz ovuchdan kim eshitmish sado?..

**4-o‘quvchi:** Yolg‘izlikka nisbatan jamoaviylik ulug‘lanadi, kishilar bir-birlari bilan ahil, do‘st bo‘lishlari kerak.

**1-boshlovchi:**

Nazm ummonida suzishni istab,  
Ash’orlar satridan ilhomni izlab,  
Ezgulik yo‘lidan sizni so‘roqlab,  
Ruhingizdan madad so‘radim, ustod!

**2-boshlovchi:**

Tashbehlar yog‘ildi, g‘azal yodlasam,  
She’riyat bog‘iga chorladi fardlar.  
Hazrat ruboiysin og‘ushlarida  
Qalbimda uyg‘ondi shirin bir dardlar.

**1-boshlovchi:** Ulug‘ mutafakkir ijodi serqirra, o‘qiganing sari yangidan yangi ma’nolarni uqasan.

**2-boshlovchi:** Darhaqiqat, Navoiy g‘azalini bilmaydigan, bir kuyga solib ko‘rmagan ijodkor juda kam bo‘lsa kerak. Keling, hozir Navoiy g‘azali bilan aytiladigan qo‘shiq tinglasak.

*(Sahnada maktab xor jamoasi ijrosida «Fido» qo‘shig‘i yangraydi).*

**1-boshlovchi:**

Ko‘rgali husningni zor-u muftalo bo‘ldum sanga,  
Ne baloliq kun edikim, oshno bo‘ldum sanga.  
Har necha dedimki, kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,  
Vahki, kun-kundin battarak muftalo bo‘ldum sanga.

**2-boshlovchi:**

Men qachon dedim: «Vafo qilg‘il manga», zulm aylading,  
Sen qachon deding: «Fido bo‘lg‘il manga», bo‘ldum sanga.  
Jomi jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,  
Soqiyo, to tarki joh, aylab gado bo‘ldum sanga.

**1-boshlovchi:** Millat quyoshi, ulug‘ bobokalonimizning qoldirgan ulkan merosi har birimizning ko‘ngul mulkimizga aylanib qolsin, ularni asrab-avaylab kelajak avlodga etkazishdek muqaddas burch har birimizga nasib etsin.

**2-boshlovchi:** Xalqimizning donishmand, xalqparvar buyuk daholari hech qachon unutilmaydi.

*(Mumtoz kuy taraladi).*

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova G. Navoiy “Dilkusho bog‘lar” oralab...[Ulug‘ siymo haqida]/ Til va adabiyot ta‘limi.-2016.-11 son.-B.46-48.
2. Berdieva Z. Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik/ XXI asrda bolalar kitobxonligi: “Yoshlarni ma‘naviy-ahloqiy tarbiyalashda oila va kutubxona hamkorligi” mavzusidagi konferensiya materiallari.-2012.-may.-B.3-6.
3. Latipova M. Navoiyni anglash:[Alisher Navoiy ijodiga yana nazar]/ Ma‘rifat.-2016.-№92.-B.10.
4. Madiev O. Insonni uyg‘otgan shoir.-Ma‘rifat, 2016 yil 3 dekabr.-№97, bet 11.
5. Mardieva O‘. Navoiydek bobom bor, ko‘ksim osmon, o‘zbeğim!// Boshlang‘ich ta‘lim: Ilmiy-metodik, ahloqiy-ta‘limiy, ommabop jurnal. 2016.-№12.-dekabr.-B.4-5.
6. Muhammad Ali. Jahon adabiyoti bayroqdori: [Alisher Navoiy hayoti, ijodi, faoliyati haqida]/Kitob dunyosi.-2016.-№3.-B.1-2.
7. YUsupova D. Alisher Navoiy (1441-1501):[Navoiy saboqlari]/Jahon adabiyoti.-2016.-YAnvar.

24, 1, 22, 3, 20, 5, 18, 7, 16, 9, 14, 11  
12, 13, 10, 15, 8, 17, 6, 19, 4, 21, 2, 23



